

# INSON QADRI UCHUN, INSON BAXTI UCHUN!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 1 (1327), 2025 -yil 1-yanvar, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Muhtaram vatandoshlar!  
Siz, azizlarni, ko'pmillatli O'zbekiston xalqini yangi — 2025-yil bilan chin qalbidan muborakkob etaman.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramasdan, o'tayotgan yil mamlakatimiz uchun qutli va barakali bo'ldi. Buning uchun har qancha shukrona aytisak, arziydi.

Mehnatkash xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-ijtimoiy faolligi bilan Yangi O'zbekiston g'oyasi real voqelikka aylanoqda.

Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar demokratik islohotlarning yangi davriga qadam qo'yganimizni yana bir marta tasdiqladi.

Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilma va logistika tarmoqlari, avtomobil va temir yo'llar barpo etildi. Biznes, IT va turizm sohalari izchil rivojlanmoqda. Aholi daromadlari va turmush sifati oshmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlarimiz ishchi-xizmatchilari mardona mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirdilar.

Yangi uy-joylar, bog'cha va maktablar, oliygo'harlar, madaniyat va sport maskanlari qad ko'tarmoqda. Yurtimiz tobora qiyofa kasb etmoqda. Minglab yurtdoshlarimiz Yangi yilni yangi uylarda kutib olmoqda.

Bilimli va shijoatli, navqiron yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida erishilgan rekord natijalar milliy sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahallaning roli va ta'siri kuchaymoqda. Ma'naviy yuksalish jarayonlari hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanoqda.

Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro maydonda O'zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor sifatidagi obro'-e'tibori yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bulaming barchasi diyorimizdagi barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir.

Bugungi shukhli oqshomda siz, azizlarga, olijanob va bunyodkor xalqimizga halol mehningiz, ona yurtga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchiilik izhor etaman.

Qadri do'stlar!  
Biz 2025-yilga mamlakatimizda **Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili** deb nom berdik. Asosiy maqsadimiz — inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Yangi yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlarini qat'iy davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohalar, ish haqi, pensiya va stipendiyalar, nafaqalar miqdorini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo'lib tarbiya topishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport sohasiga e'tibor yanada kuchaytiriladi.

Muhtaram faxriylarimiz, xotin-qizlar va yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy himoya samarasini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz.

Muxtasar aytganda, **"Inson qadri uchun, inson baxti uchun!"** degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!  
Barchangizni, chet ellardagi vatandoshlarimiz, xorijiy hamkor va do'stlarimizni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi yil har bir inson, har bir oilaga, jonajon yurtimizga katta-katta yutuq va omadlar olib kelsin!  
Hamma ezgu niyatlarimiz ro'yobga chiqsin!  
Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## SAMIMIY QUTLOVLAR

Kirib kelayotgan yangi — 2025-yil munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, global moliyaviy institutlar rahbarlari, taniqli siyosatchilar, jamoat va din arboblardan samimiy tabrik va tilaklar kelmoqda.

Xalqaro hamkorlar o'z qutlovlarida mamlakatimiz yetakchisi rahbarligida Yangi O'zbekistonda siyosiy yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani,

davlatning jahon miqosidagi nufuzi va mavqei mustahkamlashga xizmat qiladigan faol, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosat olib borilayotganini qayd etmoqda.

Xorijiy yetakchilar O'zbekiston Prezidenti va ko'pmillatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, baxt-saodat, farovonlik, katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Yangi yil bayrami munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni qabul qiling.

Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanishda davom etmoqda. Toshkentdagi konstruktiv va samarali muzokaralarimiz, shuningdek, MDH, SHHT va BRIKS sammitlari doirasidagi uchrashuvlarimiz o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi, istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi.

So'ngi vaqtlarda erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi Rossiya — O'zbekiston

aloqalarining doirasini yanada kengaytirishga, Markaziy Osiyo va umuman Yevroosiyo qit'asida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini yaqindan muvofiqlashtirishga xizmat qilishiga ishonaman.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, oilangiz va yaqinlaringizga 2025-yilda mustahkam sog'liq, farovonlik va muvaffaqiyatlar yor bo'lishini, do'st O'zbekiston xalqiga esa baxt-saodat va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,  
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Sizni kirib kelayotgan yangi 2025-yil bilan chin qalbidan tabriklayman!  
Sizga tuganmas kuch-quvvat, qardosh O'zbekiston xalqi farovonligi yo'lidagi mas'uliyatli faoliyatingizda katta muvaffaqiyatlar tilayman.

Qosim-Jomart TOQAYEV,  
Qozog'iston Respublikasi Prezidenti



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Qirg'iz Respublikasi xalqi va shaxsan o'z nomidan Sizni va qardosh O'zbekiston xalqini kirib kelayotgan Yangi yil bilan samimiy muborakkob etaman!

Sizga va yaqinlaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va yangi muvaffaqiyatlar, birodar o'zbek xalqiga esa farovonlik va ravnaq tilayman!

Hurmat bilan,

Sadir JAPAROV,  
Qirg'iz Respublikasi Prezidenti



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Sizni kirib kelayotgan yangi — 2025-yil bilan chin qalbidan tabriklayman. Sizga mustahkam sog'liq, barcha ishlaringiz va tashabbuslaringizda ulkan muvaffaqiyatlar, qardosh o'zbek xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilayman. Yangi yil barchamizga baxt va farovonlik olib kelsin!

Hurmat bilan,

Serdar BERDIMUHAMEDOV,  
Turkmaniston Prezidenti



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!  
Kirib kelayotgan 2025-yil bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling. Sizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va barcha tashabbus hamda intilishlaringizda katta muvaffaqiyatlar tilayman. Yangi yil Siz uchun tinchlik va farovonlik yili bo'lsin!

Chuqur hurmat bilan,

Gurbanguli BERDIMUHAMEDOV,  
Turkman xalqining milliy yetakchisi,  
Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi

Davomi 2-betda

### Bayram shukuhi



### SALOM BO'LSIN O'N IKKI OY SARVARIGA!

Ko'z ochib yumguncha to'rt fasl almashib, 2025-yilning ostonasidan o'tib oldik. Eski yil umrimizning yana bir bo'lagini o'zi bilan tarix qatlariga olib ketdi. Hozir yangi orzu-maqsadlar, yangi rejalar tuziladigan dam. Zero, orzu — ruhning qanchisi, xayol esa — ulovi. Intiqib kutiladigan bayramda, albatta, ko'zlangan marra va niyatlar ham yangilanadi.

Davomi 2-betda

YILDA xalqimiz hayotini farovonlik sari o'zgartirgan

2024

24 MUHIM VOQEA

### Inson qadri uchun

10 MILLIONDAN ZIYOD AHOLIGA DAXLDOR

muammo hal etilmoqda





# 2024

## YILDA xalqimiz hayotini farovonlik sari o'zgartirgan

### 24 MUHIM VOQEA



Yakuniga yetgan yilda davlatchiligimiz, iqtisodiyotimiz barqarorligi, jamiyatimiz farovonligi nuqtayi nazaridan kuzatilgan eng muhim voqea-hodisalar, ilgari surilgan tashabbuslar, erishilgan natijalarga bir qur nazar tashlar ekanmiz, tarixiy zafarli odimlar ko'pligidan ularni nainki gazetamizning bitta to'liq soni, balki o'nlab sahifalariga sig'dira olmasligimizga amin bo'ldik. Shu bois, 2024-yilda xalqimiz hayotini farovonlik sari o'zgartirgan 24 ta eng muhim islohotni va ularning samaralarini alohida ko'rsatishga qaror qildik.

**1** Aholini har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida mahallalarda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat "MAHALLA YETTILIGI" FAOLIYATI YO'LGA QO'YILDI.

**2** Jizzax viloyatida Xitoyning yetakchi "BYD" kompaniyasi bilan hamkorlikda GIBRID VA ELEKTR AVTOMOBILLAR ISHLAB CHIQRISHGA START BERILDI.

**7** Prezidentimiz 10 MILLIONDAN ZIYOD AHOLI HAYOTIGA DAXLDOR "O'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonunni imzoladi.

**8** Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Toshkent shahrida RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA RADIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.

**13** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 13-dekabr kuni yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok etib, umumiy qiymati 7 MILLIARD DOLLARDAN ZIYOD 24 TA LOYIHAGA START BERDI. SHUNDAN 18 TA MAJMUA FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI HAMDA 6 TA LOYIHANING QURILISHI BOSHLANDI.

**14** "O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu ko'rsatkich 2024-YILNING O'ZIDA 110 MILLIARD DOLLARGA YETISHI PROGNOZ QILINGAN. 2030-YILGA BORIB ESA MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI HAJMINI 200 MILLIARD DOLLARGA YETKAZISH SALOHİYATI BOR.

**19** WORLD TRADE ORGANIZATION O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni yakuniy bosqichga kirdi. Mamlakatimiz tashkilotga a'zo bo'lish bo'yicha 21 DAVLAT BILAN IKKI TOMONLAMA MUZOKARALARNI YAKUNLADI.

**20** KAMBAG'ALLIK DARAJASI SO'NGGI 4-YILDA 23 FOIZDAN 11 FOIZGA TUSHDI. 2024-yil yakuni bo'yicha esa ushbu ko'rsatkichni 9 foizga tushirish maqsad qilingan.

**3** TADBIRKORLARNING BARQARORLIK REYTINGI JORIY QILINDI. Unga asosan, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to'lov intizomi, aholi bandligidagi o'mi va ish haqi kabi mezonlar asosida 4 TA TOIFAGA AJRATILIB, REYTINGI YUQORILAR UCHUN BIR QATOR IMTIYOZ VA RAG'BATLANTIRUVCHI TIZIM YARATILGANI TADBIRKORLIKNING JADAL RIVOJLANISHIGA XIZMAT QILMOQDA.

**9** O'zbekiston sportchilari Parijda bo'lib o'tgan XXXIII YOZGI OLIMPIYA VA XVII YOZGI PARALIMPIYA O'YINLARIDA TARIXIY REKORD NATIJALARNI QO'LGA KIRITDI. Olimpiyachilarimiz 13 ta — 8 oltin, 2 kumush va 3 bronza medal bilan 206 davlat orasida 13-o'rinni, paralimpiyachilarimiz 26 ta — 10 oltin, 9 kumush va 7 bronza medal jang'arib, 168 DAVLAT ICHIDA 13-O'RINNI EGALLADI.

**15** "KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI" dasturi qabul qilinib, 2025-YILDA 1 MILLION AHOLINI KAMBAG'ALLIKDAN CHIQRISH BELGILANDI.

**21** O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti ENG TEZ O'SAYOTGAN 3 TA DAVLAT QATORIDAN JOY OLDI.

**4** AMUDARYODA YANGI KO'PRIK FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI. Ham avtomobil, ham temir yo'l o'tkazuvchi mazkur ko'priq qurilgunga qadar odamlar o'tgan asming ellig'inch yillarida olib kelingan eski ponton ko'prikdan foydalanib kelar edi. Uzunligi 423 metrli ko'priq bilan birga Shovot-Qorao'zak bекatlarini bog'laydigan 85 kilometrlik temir yo'l hamda 3 ta vokzal ham barpo etildi. Natijada yo'lning o'tkazish qobiliyati 4 BAROBARGA OSHIB, BIR KECHA-KUNDUZDA 12 MING AVTOMOBIL HARAKATLANA BOSHLADI. BU BILAN YO'LOVCHILARNING 2 SOAT VAQTI TEJALISHI VA DARYODAN XAVFSIZ O'TISHI TA'MINLANDI.

**10** QO'NG'IROT — BEYNEU avtomobil yo'lining yangidan qurilgan 240 KILOMETRI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI. Mamlakatimizni Yevropa davlatlari bilan bog'laydigan ushbu strategik avtomagistral xalqaro tashuvlar masofasini 1000 kilometrgacha, transport xarajatlarini esa 25 FOIZGACHA KAMAYTIRADI. YURTIMIZNI KASPIY VA QORA DENIZ PORTLARI ORQALI YEVROPA BOZORLARI BILAN ISHONCHLI BOG'LAYDI.

**16** Barcha hududlarda ish boshlagan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyati samarasida bevosita mahallalarda aholiga ko'rsatilayotgan IJTIMOIY XIZMATLAR SONI 100 DAN OSHDI.

**22** 2024-yilda mamlakatimizda elektr energiya ishlab chiqarish tarmog'ida "YASHIL" ENERGIYA ULUSHI 16 FOIZDAN OSHDI. Energiya ishlab chiqaruvchi nodavlat kompaniyalar soni 11 TAGA YETDI.

**5** Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan boshlangan UYCHI, SAYXUNOBOD, ZARBODOR VA G'ILDUVON TAJRIBALARI asosida xalqimiz turmushi farovonligini ta'minlash, KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH HARAKATI OMMAVIY TUS OLDI.

**11** Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlariga saylov yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga muvofiq O'ZBEKISTON TARIXIDA ILK BOR ARALASH SAYLOV TIZIMI ASOSIDA O'TKAZILDI.

**17** Uzoq yillik tanaffusdan so'ng "XONOBOD", "MINGTEPA", "QORASUV" VA "UCHQO'RG'ON" chegara postlari faoliyati tiklandi. Kelgusi yilda "G'ISHTKO'PRIK", "NAVOIY", "DOVUT-OTA", "SHOVOT" VA "GULBAHOR" CHEGARA POSTLARIDA QO'SHIMCHA KORIDORLAR QURILIB, O'TKAZISH QUVVATI 5 KARRA OSHIRILADI.

**23** Aholini markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 2017-yildagi 63,9 foizdan 2024-yilda 80 foizga yetkazildi. NATIJADA 3 MILLION YURTDOSHIMIZNING ICHIMLIK SUV TA'MINOTI YAXSHILANDI.

**6** YANGI TOSHKENT SHAHRIDA QURILISHLAR JADALLASHDI. Asr qurilishi sifatida e'tirof etilayotgan mazkur yirik bunyodkorlik loyihasi ilm va ta'lim maskanlaridan boshlandi. Bular ma'rifati jamiyat barpo etish g'oyamizning asosi va namunasiidir.

**12** Birinchi marta Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga raislar deputatlar orasidan saylandi. Ushbu siyosiy islohot orqali xalqimizning 30-YILLIK ORZUSI RO'YOBGA CHIQRILDI. 2024-YILDA HOKIMLARNING 33 TA VAKOLATI KENGASHLARGA OLIB BERILDI, YANA 17 TA VAKOLATNI O'TKAZISH REJA QILINGAN.

**18** MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI QAMROV 74 FOIZDAN, OLIY TA'LIMDA ESA 39 FOIZDAN OSHDI.

**24** XITOIY — QIRG'IZISTON — O'ZBEKISTON YANGI MAGISTRAL TEMIR YO'LI QURILISHIGA START BERILDI.

## Inson qadri uchun



Xatlov ishlari boshlandi. Jarayonga kadastr idoralarning 4500 dan ortiq mutaxassisi jalb qilindi. Bugunga qadar 575 ta mahalladagi 116 ming 198 ta obyektga xatlov ishlari yakunlandi.

# 10 MILLIONDAN ZIYOD AHOLIGA DAXLDOR muammo hal etilmoqda

“O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun ayni shu jihatlari bilan e'tirofga loyiq.

Poyoniga yetgan yilda mamlakatimizda odamlar turmushini farovonlashtirish, munosib hayot kechirishi uchun sharoit yaratishga e'tibor yanada kuchaydi. Buning uchun huquqiy asoslar mustahkamlandi. Ilgari imkonsizdek tuyulgan ishlar, tashabbuslarga qo'l urildi. Xususan, 2024-yilning 5-avgust kuni davlatimiz rahbari imzolagan “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun orqali ko'pchilik kutayotgan, millionlab oilalar hayotiga daxldor masalaga yechim topildi.

Dastlabki o'rganishlar huquqiy hujjatlari yo'q yoki to'liq bo'lmagan 3 million 600 mingdan ortiq yer uchastkasi mavjudligini ko'rsatgan. Shu bois, davlatimiz rahbari 2023-

yil 21-noyabrda yer hisobi va kadastr xizmatlari bo'yicha o'tgan videosektor yig'ilishida bu masalani qonuniy hal etish zarurligini aytgan edi. Qonun ayni shu masalani hal etish uchun qabul qilindi.

Hujjatda 8 ta holatdagi yer uchastkalari hamda ularda joylashgan binolarga huquqlarni e'tirof etish nazarda tutildi. Uning ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining taklifiga ko'ra, 2024-2025-yillar uchun reja-jadval tasdiqlandi. Unga muvofiq, ikki yil davomida 3878 ta mahalladagi 2259 mingdan ziyod obyektga xatlov o'tkaziladi.

Mazkur qonun hamda uning ijrosi yuzasidan boshlangan ishlarni, tom ma'noda, o'tgan



yilning tarixiy voqealaridan biri sifatida e'tirof etsak arziydi. Chunki u orqali millionlab yurtdoshlarimiz hayotida o'zgarish sodir bo'ldi. Odamlarning o'n yillar davomida

noaniq bo'lib turgan savollariga javob berildi. Ya'ni ular amalda boru hujjatda yo'q uylariga egalik qiladigan bo'ldi. Endi “Uyim olib qo'yilmamikan?”, “Buzib tashlanmikan?”

degan hadik va xavotirlarga o'rin qolmaydi.

Qonun qabul qilingach, uning ahamiyati xususida e'tiroflar ko'p yangradi. Mamlakatimizda yuritilayotgan insonparvar, xalqchil siyosatning mantiqiy davomi ekani haqida ko'p gapirildi. 3 million 600 mingdan ortiq yer uchastkasining har biri o'rtacha 3-4 nafardan fuqaro va tadbirkorga daxldor bo'lsa, bu qonun 10 milliondan ziyod kishining muammosini hal qilib, kelgusi hayotiga qonuniy zamin yaratilishi aytiladi.

Shu paytgacha qonun ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini ta'minlash maqsadida o'quv-seminarlar o'tkazildi hamda qonunning mohiyati va ahamiyati xususida aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borildi, ommaviy axborot vositalarida 100 dan ortiq ko'rsatuv namoyish etildi, radioeshittirishlar uzatildi, maqolalar chop etildi. Xatlov jarayonini raqamlashtirish

maqsadida Kadastr agentligi tomonidan “E'tirof” axborot tizimi ishlab chiqildi. O'z navbatida, “E'tirof” axborot tizimi UZKAD tizimiga integratsiya qilinib, xatlov jarayonida shakllantirilgan ma'lumotlar almashinuviga yo'lga qo'yildi. Davlat organlari mas'ullari uchun axborot tizimidan foydalanish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Xatlov ishlari boshlandi. Jarayonga kadastr idoralarning 4500 dan ortiq mutaxassisi jalb qilindi. Bugunga qadar 575 ta mahalladagi 116 ming 198 ta obyektga xatlov ishlari yakunlandi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2025-yil yakuniga qadar 700 mingdan ziyod fuqaroning uy-joyga egalik huquqini e'tirof etish masalasi ko'rib chiqildi. Bu juda e'tiborga molik raqam. Yurtdoshlarimizning fikr va mulohazalaridan ham buni anglash qiyin emas.

## YERGA MUNOSABATDA YANGICHA MEXANIZM

Shavkat MURODOV,  
Davlat kadastrlari palatasi  
Surxondaryo viloyati  
boshqarmasi davlat yer  
kadastrini yuritish sh'o'basi  
boshlig'i:



— Surxondaryo viloyatida 724 mahalla mavjud. Kadastr agentligi mutaxassislari tomonidan grafik asosida 2024-yilda 24 mahallada xatlov ishlari bajarildi.

Dastlab ishlar Muzrabot tumanidan boshlandi. Avvalo, seminar tashkil etilib, viloyat mas'ullari tomonidan Kadastr agentligi ishchi guruhi xodimlariga xatlov jarayonlarini o'tkazish to'g'risida aniq ko'rsatmalar berildi. Xonadonlarga bog'anda ham fuqarolarga masalani to'g'ri tushuntirish katta ahamiyatga ega.

Masalan, mazkur qonun yer uchastkalarini to'g'ri boshqarish, noqonuniy harakatlarni bartaraf etish va fuqarolar uchun qonuniylikni ta'minlashga xizmat qilishi, yerga oid qonun buzilishi holatlari uchun javobgarlik kuchaytirilishi, o'zboshimchalik bilan egalash va noqonuniy imorat qurish holatlari kamayishiga xizmat qilishi ma'lum qilinishi lozim.

Muzrabot tumanida 37 ta mahalla mavjud bo'lib, rejaga binoan “Shaffof” MFY hududida yashovchi fuqarolarning yer maydoni to'liq xatlovdan o'tkazildi.

Viloyatning barcha hududlarida soha mutaxassislari tomonidan fuqarolarga hujjatsiz qurilgan uylarni qonuniylashtirishning aniq tartib-tamoyillari haqida batafsil tushuntirish berilmoqda. Natijada yillar davomida yerga munosabatda mavjud bo'lgan noaniqliklar aniq asoslar bilan belgilab olinmoqda.

Xatlov jarayonida kadastr xodimlari ham belgilangan vakolatidan chetga chiqib, ta'magirik qilsa yoki korrupsiya harakatini amalga oshirsa, Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi ishonch telefonlariga bog'lanish uchun ma'lumotnomalar ham taqdim etilmoqda.

Fuqarolardan xatlov jarayoniga turli vositachilarni aralashtirmaslik, kadastr xodimlariga “Tezlashtirish, imkonini qilib bering” degan turli vajlar bilan moddiy manfaatdorlikni taklif qilmaslik ham so'ralmoqda. Boisi, bugunmi yoki ertagami xonadonlarga xatlov uchun, albatta, boriladi. Har bir xonadon uchun har bir xodimdan so'rov bo'ladi. Shu borada ham o'zaro hamjihatlikka e'tibor beriladi. Ushbu masalalarda, shuningdek, fuqarolarga hujjatsiz qurilgan uylarni qonuniylashtirishning aniq tartib-tamoyillari haqida soha mutaxassislari tomonidan batafsil tushuntirish berilmoqda.

## QONUN KUCHI IJRODA

Dilmurod TURSUNOV,  
Yozyovon tumani  
“Yangibo'ston” MFY raisi:



— Qonun kuchi ijroda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun ko'plab oilalar hayot tarziga huquqiy erkinlik, mulk daxldorligini olib kirdi.

Bu jarayon bizning hududda birinчилardan bo'lib amalga oshirilmoqda. Mahallamizda 147 ta xonadon bor. Ammo ularning aksariyatida egalik huquqi yo'q edi. Buning hisobiga ayrim fuqarolarni tegishli tartibda yashash joyiga ro'yxatga qo'yishda tushunmovchilik, ortiqcha o'voragarchilik yuzaga kelayotgandi.

Xatlov jarayonida xonadonlarni tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazish, hujjatlarni jamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, kadastr, huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlari, mahalla faollari bilan hamkorlikda o'zboshimchalik bilan egalangan yer uchastkalari va ulardagi noqonuniy qurilishlar nazorati hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy maslahatlar berib boryapmiz.

Qonun doirasidan chetga chiqqan yoki qonunga zid holda yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan egalab, noqonuniy qurilishlar qilgan shaxslarga ma'muriy yoki jinoyi javobgarlik belgilangan yuzasidan targ'ibot tadbirlari o'tkazib kelyapmiz. Mahalladoshlarimiz orasida “o'zboshimchalik bilan yer uchastkalarini egallab olish, qonun doirasida hujjatlashtirishga erishaman”, deb firibgarlar tuzog'iga tushib qolmaslik choralarni ko'ryapmiz, hushyor va ogoh bo'lishga chaqiryapmiz.

Qonunda uy-joy kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish emas, balki huquq belgilovchi hujjatlarini bo'lmagan uchun yer va binolarga huquqni e'tirof etish masalasi ko'zda tutilgan. Tadbirkorlik

subyektlari tomonidan o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratlar emas, balki tadbirkorlik subyektlariga hokimliklar tomonidan yajratilib, viloyat darajasida tasdiqlanmagan holatlar hamda tadbirkorlik subyektlari kichik sanoat zonalariga joylashtirilib, hokim qarori chiqarilmay qolgan holatlar ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan yuzasidan uchrashuv, davra suhbatlari o'tkazib kelinayпти.

Xonadonlarda bo'lib, to'plangan hujjatlarining to'liqligi va qonuniyligini viloyat adliya boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqilishiga yuborilyapti. Natijalar esa mahalla burchaklari, Kadastr agentligining sayti orqali jamoatchilikka e'lon qilinadi. Ijroiy xulosa olgan fuqarolarga SMS xabaromga keladi. Shu asosida bir martalik to'lovni to'laganlarga har chorakda xalq deputatlari viloyat kengashi qarori bilan huquqlar e'tirof etiladi.

Mazkur qonun ko'pchilik yurtdoshlarimiz intiqib kutayotgan yangilik bo'ldi. O'zi yashab turgan xonadon egalari yer uchastkasi va qurilgan binolar, inshootlarning huquqiy hujjatlarini yo'qligidan xavotirda yurgan bo'lsa, endi bu muammolar barham topmoqda.

## UYIMIZNING HAQIQIY EGASI BO'LAMIZ

Hayotda insonning orzusi ko'p bo'ladi. Ana shulardan eng muhimi o'z vatani, oilasi va albatta, uyi bo'lishidir. Biz o'z yurtimizda ulg'aydik, o'sdik, oila qurdik. To'g'risi, uy-joyga ega bo'lishda bir oz qiyinaldim. Insonning uyi bo'lmasa, oilasida osoyishtalik, ko'nglida halovat bo'lmasligini his qildim, boshimdan o'tkazdim.

Navoiy shahriga Xatirchi tumanidan kelganman. Ishga joylashganimdan keyin ijaraga xonadon topishga majbur bo'ldim. Yosh oilamiz, bir farzandimiz bor. 2015-yilda shaharga yaqin joydan uy olish harakatiga tushdik.

Bir tanishimdan Karmana tumanidagi fermer uy-joy qurish uchun fuqarolarga yer sotayotganini eshitib, o'ta-onam, yaqinlarim ko'magida 6 sotix yer sotib oldim. Yerni sotgan fermer keyinchalik barchasini hujjatlashtirish berishini va uy qurilgandan keyin kadastr hujjatlarini qilinishini aytdi.

Afsuski, unyi qurib, bir-ikki xonasini ta'mirlab, ko'chib kirganimizdan keyin muammolar boshlandi. Uyg'a kadastr hujjatlarini tayyorlash uchun tegishli tashkilotlarga berganimizda yer noqonuniy egallab olinganini aytib, arizamiz rad etildi. Juda ko'p ovora bo'ldik.

Eng yomoni, ne-ne qiyinchiliklar bilan qurgan uyimizni buzib tashlash uchun siddan ham qog'oz kelgandi. O'sha kunlarda Prezidentimiz qarori bilan “Bir martalik aksiya” e'lon qilindagina yuragimizda

umid uyg'ongan edi. Afsuski, belgilangan muddatda hujjatlarini to'g'rilashtirish imkonini bo'lmadi. Ulgurmadik.

No'iloq, yana shahardan ijaraga uy olib ko'chib chiqdik. Arosatda qolib, oilamda ham, ishida ham halovat bo'lmadi. “O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun tufayli ko'nglimda yana umid uyg'ondi. Men kabi yer sotib olib, uy qurib, kadastr hujjatlarini to'g'rilashtirish imkonini topolmay, arosatda yurgan qo'shnilarim ham xursand bo'ldi.

Qonunda 2018-yil 1-maygacha yakka tartibdagi uy-joy qurib o'zboshimchalik bilan egalangan yer hamda undagi bino va inshootlarga egalik huquqi berish belgilangan ekan. Bu bizdek arosatda qolgan fuqarolarga katta imkoniyat. Axir necha yildan buyon qanday azoblaru o'voragarchilikni boshimdan o'tkazganim o'zimga, oilamga va yaqinlarimga ayon.

Ushbu qonun noyabrda to'liq kuchga kirdi. Biz ham tegishli tashkilotlarga murojaat qildik. Ayni vaqtda xatlov jarayoni ketmoqda ekan. Bunday imkoniyat bergan Prezidentimizdan minnatdormiz. Yaqin kunlarda uyimizning qonuniy egasi bo'lib, oilamiz bilan halovatda yashaymiz, degan umiddamiz.

Jonibek OYBEKOV  
Navoiy shahri

## IMKONIYATDAN CHEKSIZ MAMNUNMIZ

Mahmud ALAUATDINOV:

— Nukus shahridagi “Ata makan” mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilaman. Imoratimni tiklaganimga 20-yil bo'ldi. Ammo shu vaqt ichida kadastr hujjatlarini bo'lmagan uchun juda ko'p muammoga duch keldim. Jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan uy-joylarga egalik huquqi berilishi biz kabi fuqarolar manfaatini himoyasi yo'lida muhim qadam bo'ldi.

Shahar hokimligidan mas'ullar kelib, holatni o'rgandi. Keyin uy-joyga egalik qilish huquqini berish bo'yicha kadastr hujjatini taqdim etishdi. Endi o'z uy-joyimga ega bo'ldim va oila a'zolarim bilan birga osoyisha hayot kechiryapmiz.

Qonun bilan 2018-yil 1-maygacha yakka tartibdagi uy-joy qurib, o'zboshimchalik bilan egalangan yer hamda undagi bino va inshootlarga egalik huquqi berish belgilangan bizdek arosatda yurganlar uchun katta imkoniyat bo'ldi.

Bundan cheksiz minnatdormiz. Bo'lmasa, yana qancha yillar qiyinalib yashardik. Oilamizda farzandlarimiz kamol topmoqda. Endi ularning tabiiyasi bilan be-xavotir shug'ullanishga imkon bor.

Nukus shahri

## O'Z “VATANIMIZ” BOR

Dilbar ALLANIYAZOVA:

— 2015-yilda Qo'ng'iro't tumani “Qiyot” ovul fuqarolar yig'ini hududida yaxshi niyat bilan imorat tikladim. Lekin kadastr hujjati bo'lmagan uchun uyimni gaz, elektr, suv tarmoqlariga ulay olmadim. Ushbu xonadonga ro'yxatga xam kiritilmadi. Ko'nglimizda halovat bo'lmadi. Kadastr hujjatlarini tayyorlash uchun tegishli tashkilotlarga berganimda arizamiz qabul qilinmadi. Shu bois, qancha mehnatimiz evaziga qad rostlagan uyimizda yashay olmay keldik. Uyimiz esa turgan sari esirib borar edi.

Prezidentimizning 2023-yil 28-iyuldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini ijtimoiy

qo'llab-quvvatlash hamda jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan uy-joylarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi farmoni biz uchun uzoq yillar orziqib kutilgan hujjat bo'ldi. Bu bilan mazkur yo'nalishdagi ishlar Qoraqalpog'istonda oldinroq boshlandi. 2024-yil avgustda qabul qilingan qonun esa bu ishlarni yanada tezlashtirdi.

Mana, oradan necha yil o'tib, biznikidek hujjatsiz, kadastr yo'q uy-joylarni hujjatlashtirishga ruxsat berilgani cheksiz quvonchga sabab bo'lmoqda. Uyimizning haqiqiy egasiga aylandim. Imoratimga o'zim egalik qilyapman. Yillar davomida sarson-sargardon bo'lganlar holatimni juda yaxshi tushunadi. Katta uying bo'lgani bilan unda yashash, istiqomat qilish huquqi bo'lmasa, qiyin. Endi ushbu xonadonda ro'yxatga qo'yilib, nevaralarimni bema'lol bolalar bog'chasiga olib boryapman.

Qo'ng'iro't tumani

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!







www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

Tahlilchilarning aytishicha, bitta daraxt yil davomida 125 kilogrammgacha kislorod ishlab chiqaradi. Bu bilan o'rta hisobda ikki inson bir yil to'yib nafas olishi mumkinligini hamma ham bilmaydi. Aks holda, birorta qurigan daraxtni uchratmasdik.

## Ona tabiat

Davlatimiz rahbari Bektemir tumanida barpo etilgan yangi boqqa ko'chat ekkanida, daraxt ekish borasida yaxshi bir gapni aytdi: "Bu an'ana o'zi bizda bor. Xalqimiz tabiatni "ona" deydi, yerni, suvni e'zozlaydi".

Birinchi jumlaning o'ziyoq xulosa chiqarishimiz uchun kifoya qiladi. Ajdodlardan meros tabiatni asrash mas'uliyatini doim his etishimiz kerak. Uning yil nomiga ko'chgani esa ekologik vaziyatni to'g'rilash bejiz davlat siyosati darajasiga ko'rilmaganidan dalolat. Illo, butun dunyoda ekologik muammo birlamchi bo'lib

turgan hozirgi davrda toza havo, qulay iqlim yaratish, xavfsizligimizni ta'minlash muhim masala.

Bugun har bir xonadon, har bir tashkilot yashillikni ko'paytirishga, tabiatni asrashga hissa qo'shishi kerakligi takror-takror aytilyapti. Xalqimiz shaxsiy namunani, el ardog'idagi shaxslar fikrini doim qo'llab-quvvatlagan. Shu bois, sevimli san'atkorlarimizning tabiat, yashillik haqidagi mulohazalari bilan qiziqdik.

# YASHILLIKDAN YASHNAGAY IJOD

## Ezgulikka baxshida yil

Abdushohim ISMOILOV, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti:



— "Yashil makon" degan so'z aslida qadriyat emas, meros bizga. O'zingiz o'ylang, shunday ezgu qadriyat, harakat yana qaysi yurtida bo'lyapti? Buni faqat bizning millat qiladi. Zero, qaysi o'zbekning xonadoniga bormang, albatta, daraxt ekilgan bo'ladi. Bahorda qiyg'os gullasa, yozda yashillanib tursa, kuzda oltin rangga kirs, ko'zimiz quvnaib, dilimiz yayraydi. Shunday ekan, har bir daraxtning qadriga yetishimiz kerak.

O'zim ham o'tgan yil ko'chamizga, hovliga uzum, olma ekdim. Ularni parvarishlashdan zavqlanaman. Mehmon kelsa, shu daraxtning soyasidagi salqin supaga joy qilib, bir piyola choy bersangiz bormi... Yashillikka nima yetsin? Shuning uchun yurtimizni yashillikka burkashga, havoni tozalashga rahnamolik qilayotganlarga "labbay" deb xayrixoh bo'lishimiz joiz. Chunonchi, bunday ishlarni boshlagan insonga, amalga oshirgan kishilarga juda katta savob yozilar ekan. Dunyodan o'tib ketganlaridan keyin ham daraxtning soyasi, mevasidan baha olganlarning duolari shu ishga hissa qo'shganlarga yetib borishini ko'p eshitamiz. Shuning uchun ba'zi insonlar ko'cha-ko'y, mahallalarga beminnat daraxt ekaveradi.

Ochiq aytish kerak, ba'zi odamlar ko'chasiga daraxt ekib qo'yilsa ham

## Tozalik, obodlik bor joyda baraka bo'ladi

Yodgora ZIYAMUHAMMEDOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist:



— Bolaligimizdan tuproqning, suvning azizligini, daraxt tabiatning bir mo'jizasi ekanini eshitib ulg'ayganmiz. Yaxshidan bog' qolishini bot-bot aytardi kattalar. Bugun ekayotgan nihollarimiz ko'rkam bog'lar bo'lgani, yashil daraxtzorlarga aylanganini o'zimiz ko'rmasak, avlodlarimiz ko'radi. Shu bog'larni yaratganlar, deya bizni eslashadi, o'zlari ham ezgu ishlarni davom ettirishga chog'lanadi.

Davlatimiz rahbari 2025-yil nomini aytganida, rosa xursand bo'ldik. Negaki shuncha yillardan buyon bolalarni, onalarni asrashga, yoshlarga, qariyalarga e'tibor berib kelindi. Endi ona tabiatga davlat siyosati darajasida qarashimiz, albatta, eng munosib farzandlikka xos qaror bo'ldi. Zora, endi butun e'tiborimiz, diqqatimiz shunga qaratilib, yillar davomida ona tabiatimizni g'animat bilmaganimizni anglab yetsak. Uning ko'nglini shod etish, atrofida aylanib-o'rgilub xizmatini qilishga bel bog'lasak, qanday yaxshi! Tozalik, obodlik bor joyda baraka bo'ladi. Ilohim, kirib kelgan yil tabiatning o'zi bizni eng aziz ne'matlari, barakatlari bilan siylasin. Bunga javoban esa har birimizning unga mehrimiz ortsin. San'at, ijod vakillari esa yashillikdan yashnagan hayotda go'zal ijodga sho'ng'ib yursin.

## Mehr bersangiz, daraxt ham oilangiz a'zosedek bo'lib qoladi


Turg'un BEKNAZAROV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist:

— Ota-bobalarimiz daraxt ekib, bog' ko'kartirgan. Daraxtning soyasida huzurlanib chanoq'ini qondirgan, mevasidan totgan odam ich-ichidan "Daraxt ekkanning otasiga rahmat", deyishini ular yaxshi bilgan. Qarag, daraxt ekib ham otaga rahmat keltirish mumkin. Mana, 3-4 yildan buyon yurtimiz bo'ylab qanchadan qancha daraxt ekilyapti, bog'lar barpo bo'lyapti. Bu ishlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, albatta. Davlatimiz rahbarining o'zi tashabbuskor bo'lib, ko'plab bog'larga ko'chat o'tqazdi. Ezgu niyat bilan tuproqqa ko'milayotgan har bitta ildiz yerga tutashib ketsa, tabiatga koni foyda. Zero, bitta daraxtni ko'kartirish oson emas. Daraxt ham tirik jon, oilangiz a'zosedek bo'lib qoladi. Mehr berganlardan saxovatini ayamaydi. Kesib, azoblanganlar esa, albatta, javob beradi.

Hovlida turganimiz uchun daraxt ekish eng sevimli ishim. Qayerga bormay, albatta, o'zimizda bo'lmagan daraxt ko'chatini

so'tib olaman. Chet ellarga borganimda ham ajabovur, manzarali daraxtlarga razm solib yuraman. Shu daraxt juda ajoyib ekan, ko'chatidan olsak bo'larkan deyman, albatta, berishadi. Eng qimmatbaho narsani qo'lga kiritgandek xursand bo'lib qaytaman. Ba'zan to'liqlanib, bir nimalar yozib yuborgim keladi. Shu o'rinda Prezidentimizning hamma sohada "ona tabiat" degan jumlaning ma'nosiga yetish, yozuvchilar, shoirlar she'r, dostonlar yozishi, kinolar chiqarilishi muhimligini aytgani yodimga tushdi. Chindan ham biz, ijod, san'at ahli bu borada faol bo'lishimiz, odamlar tabiatni o'nadek mehribonligini his etishga xizmat qilishimiz kerak. O'ylaymizki, Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida bunga erishamiz. Yilga bunday nom berishdan ko'zlangan maqsad ham shu, desak, xato bo'lmaydi. Chunki onaning mehri beqiyosligini tushunib yetgan insonga uni asrab-avaylashga harakat qiladi.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Sarhisob insonga o'tgan vaqtdan, voqealardan xulosa chiqarish, kelajak uchun rejalar tuzish, yutuqlardan quvonish, hayotdan rozilik tuyish imkoniyatlarini beradi. Bugun yangi yilni kutib oldik. Xo'sh, oradan o'tgan bir yilni qanday o'tkazdik? Qanday yutuqlarga erishdik? Nimalarni qo'ldan boy berdik?

bilan tanishdim. Oxiri bir qarorga keldim. Joylashuv, to'lov shartlari — barcha-barchasi ma'qul bo'ldi. Biroq jarayon davomida sezdimki, mamlakatimizda yangi uy-joy sotib olishning kafolatlari nihoyatda nozik ahvolda. Quruvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnomalar, qat'iy nazorat yo'qligi bo'smi, ko'proq



Jonibek ALI, yosh ijodkor

Ortda qolgan 2024-yil turli sarguzashtlarga boy yil bo'ldi, desam to'g'ri bo'ladi. Yil davomida insoniy va fuqaroviy tajribalarim yanada ortdi, dunyoqarashim muayyan ma'noda boyidi. Keling, imkon bor ekan, shular haqida qisqacha aytib beray. Balki bu tajribalar kimgadir asqatib qolar.

Men uchun o'tgan yil poytaxtda kichik vatanli bo'lish, ya'ni uy sotib olishning shirin tashvishlari bilan boshlangan edi. Rosti, bu borada juda ko'p imkoniyatlar izladim, turli qurilish tashkilotlari faoliyati

quruvchining manfaatlarini himoya qilishiga amin bo'ldim. Qisqacha aytganda, mamlakatimizda yangi uy oloyotgan ko'pchilik insonlar to yangi xonadonning kaliti va hujjatlarini qo'lga olmaguncha qaysidir ma'noda jonini hovuchlab yashaydi go'yo. Menda shunday taassurot uyg'ongandi. Biroq yaqindagina bu borada

## Nuqtayi nazar

# XULOSALAR FURSATI



Ortda qolgan 2024-yil turli sarguzashtlarga boy yil bo'ldi, desam to'g'ri bo'ladi. Yil davomida insoniy va fuqaroviy tajribalarim yanada ortdi, dunyoqarashim muayyan ma'noda boyidi. Keling, imkon bor ekan, shular haqida qisqacha aytib beray. Balki bu tajribalar kimgadir asqatib qolar.

ishonchli tizim ishlab chiqish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan topshiriqlar berilganini eshitib, ko'pchilik qatori mening ham ko'nglim xotirjam tortdi. Yana bir voqea — 2024-yilda hayotim davomida birinchi marotaba jarrohlik

amaliyotini boshdan o'tkazdim. Aynan shu voqea men uchun tibbiyotimizning bugungi holatini anglashga yordam berdi. Kasallik belgilarini sezgach, dastlab xususiy tibbiyot muassasalariga murojaat qildim. Ochiq'i, ulardagi xizmat ko'rsatish, kafolat ancha ma'qul bo'ldi, biroq shunga yarasha narx-navoning qimmatligi uchun davlat shifoxonasiga murojaat qilishga to'g'ri keldi. Rostini aytсам, jamiyatimizda davlat shifoxonalari haqida paydo bo'lgan stereotip tufayli men ham boshida qo'rqqandim. Biroq jarrohlik muolajalarini boshdan o'tkazib sezdimki, odamlarning davlat tibbiyot muassasalarini haqidagi fikri ancha bo'rtirilgan ekan. Shifokorlar jarrohlikdan to tuzalib ketguncha g'amxo'rlik qilib turdi. Biroq bu yerda e'tibor qaratish lozim

bo'lgan bir jihat bor, siz shifokor tanlashda tanish-bilishlarning tavsiyasiga amal qilishingiz ancha afzal bo'lar ekan. Shukrki, davlat tibbiyot muassasalarida davolanib, sog'lig'imdagi muammodan xalos bo'ldim.

O'tgan bir yilda hayotimda sodir bo'lgan yana bir muhim voqea — oila qurdim. Ochiq'i, nikohdan o'tish masalasi qog'ozbozlikning o'zi bo'lsa kerak, degan fikrda edim. Ammo bunday bo'lib chiqmadi. Arizani onlayn topshirdik, bunda nikohni qayd etish manzili sifatida o'zingizga maqbul hududni tanlashingiz mumkinligi juda ma'qul keldi. Ya'ni rasmiy jihatdan doimiy yashash joyimiz viloyatda bo'lgani uchun viloyatimizga borib topshirsa kerak, degan xayol yo'q emasdi. Aksincha, o'zimizga ma'qul tumanni tanladik. Tanlagan tumanimizning Davlat xizmatlari markaziga chaqirishida va tibbiy ko'riktan o'tish uchun yo'llanma berishdi. Tibbiy ko'riktan o'tishga naqd ikki kun sarfladik. Agar ko'riktan o'tish muassasalari bir yerga jamlansa, nur ustiga nur bo'lardi, deb o'yladim. Shunda bu jarayonga, menimcha, yarim kun ham vaqt ketmasa kerak. Ammo sarflagan vaqtimizga achinmadim, sababi sog'liq hamma uchun muhim. "Tibbiy ko'riktan o'tish pul bilan hal bo'ladi", degan gaplar esa allaqachon quruq safsataga aylanib qolgan ekan.

Yil davomida men duch kelgan yana bir muammo ijara masalasi bo'ldi. Tabiiyki, yosh oila sifatida yangi ijara uy topishimiz kerak edi. Mamlakatimizda ijara tizimining eng salbiy jihati — kelishuv xorijiy valyuta vositasida tuzilishi bo'lib tuyuldi menga. Aslida, milliy valyutada maosh oladigan biz kabi insonlar uchun bunday kelishuv tavakkalning o'zginasi. Sababi kelgusida xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan qiymati qanchalik o'zgarishini

oldindan bila olmasiz. Masalan, yil boshidagi qiymat bilan hozirgi qiymat orasida farq ancha sezilarli.

Xullas, bir amallab "makler"lar vositasida ijara uy topdik. Ularning xizmat haqi ijara qiymatining 50 foiz miqdorida ekanining o'zi alohida mavzu. Shunda uy egasi bilan ijara kelishuvini milliy valyutamizda tuzishga urinib ko'rdim. Biroq uy egasi rozi bo'lmadi. Uning ham xavotiri yuqorida aytganimizdek, oradagi qiymat o'zgarishi bilan bog'liq. Shunda amin bo'ldimki, aksar yurtodoshlarimizning milliy pulimizga ishonchi hanzuz sustligiga qolmoqda. Fikirimcha, bu salbiy holat. Bu mas'ullar oldiga mamlakatimiz hududida milliy valyutamiz nufuzini oshirishga oid choratadbirlarni kuchaytirish vazifasini qo'yadi.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi, ijara uyimiz joylashgan hudud poliklinikasiga ro'yxatga qo'yildik. Rosti, bu safar qog'ozbozlik holatlari butunlay barham topdi deb o'yladim, lekin amin bo'ldimki, uning nishonalari hanzuz mavjud. Dastlab ijara shartnomasini ko'tarib, poliklinikaga bordim. Ular ro'yxatga qo'yish uchun buning o'zi yetarli emasligini, mahalladan ma'lumotnoma olib kelishimni aytdi. "Mahalladan spravka" degan narsa hali bor bor ekan-da! Mahalla idorasiga kelib, vaziyatni tushuntirsam, ular haqiqatan shu uydah yashashimizni tasdiqlash uchun yon qo'shnilarimizdan yozma dalolatnoma olib kelishni aytdi. "Hozir nechanchi asr?" degan savoldan keyin bir amallab yozib berishdi. Vaholanki, ijara shartnomasida uy egasining elektron roziligi mavjud bo'ladi. Ishqilib, oddiygina poliklinikaga ro'yxatga qo'yishimiz uchun ikki kun ovora bo'ldik. Aslida, bu ham soddalashtirish oson bo'lgan jarayon edi. O'ylaymizki, mas'ullar uni to'liq raqamlashtirish ustida ishlamoqda.

Xullas, ortda qolgan yil shular va boshqa katta-kichik voqealarga boy bo'ldi. Eng muhimi, mamlakatimiz rivojlanayotgani, tumushimiz farovon bo'layotgani ishtiyosimni yanada oshirmoqda. Kechayotgan islohotlarga yanada ko'proq hissa qo'shishga chog'lamoqda. Kirib kelgan yangi yil ham ana shunday shiddatli va xilma-xil voqealarga boy bo'ladi deb umid qilaman.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1. 38993 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy